

TADBIRKORLIKDA ISHLAB CHIQARISH RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

PhD. I.M.Kamoliddinov

UNIVERSITY OF BUSSINES AND SCIENCE

"Moliya" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyati va uning ishlab chiqarish jarayonida resurslaridan samarali foydalanish masalalari, bugungi kunda kichik biznes sub'yektlarini bilan bog'liq muammolar qisqacha asoslab berilgan hamda ularning nazariy yechimlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, soliqlar, soliqqa tortish, soliq siyosati, soliq rejimi.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va foyda hajmini ko'paytirishda ishlab chiqarish jarayonida resurslaridan samarali foydalanish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ana shu resurslardan oqilona foydalanish darajasiga bog'liq bo'lib, bu jarayon ilmiy yondashuv, tejamkorlik, innovatsion texnologiyalar va to'g'ri boshqaruv orqali amalga oshiriladi[1].

"Ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish, foydalanilmayotgan davlat mulkini xususiy sektor tomonidan olib foydalanish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida ishlab chiqarish obyektlarini tashkil etishni rag'batlantirish" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3974-sonli Qarori, "Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, o'rmonlarni qayta tiklash, eroziya va cho'llanishga qarshi o'rmon barpo etish va ko'paytirish tadbirlarini amalga oshirish" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 fevraldagi PQ-4204-sonli Farmoni tadbirkorlikda ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish uchun keng sharoit va imkoniyatlar yaratilish maqsadi bugungi kunning dolzarb masalalari xisoblanmoqda.

Mavzuga oid adbiyotlar shaxri.

"Ishlab chiqarish resurslari cheklangan, inson istaklari esa cheksiz. Samarali iqtisodiy boshqaruv ularni optimal tarzda taqsimlashdan iborat."

Samuelson fikricha, resurslar (yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik) doimiy tanqislik holatida bo'ladi, shuning uchun tadbirkorlar ushbu resurslardan maksimal foyda olish yo'lini izlashi lozim. Uning nazariyasi bo'yicha har bir resursga nisbatan qiymat va samaradorlik nuqtai nazaridan yondashuv zarur. Bu fikr tadbirkorlik faoliyatida resurslardan oqilona foydalanishning iqtisodiy zarurat ekanini ko'rsatmoqda[5].

Porterning fikricha, ishlab chiqarish resurslari bilan samarali ishlaydigan kompaniyalar bozor talabiga tezroq javob beradi, xarajatlarni kamaytiradi va foydani oshiradi. Uning "qiymat zanjiri" konsepsiyasi orqali resurslar har bir bosqichda qanday qo'shimcha qiymat yaratishi aniqlanadi. Bu nazariya tadbirkorlar uchun strategik rejalashtirishda muhim yo'nalish hisoblanadi.

G'ulomovning fikriga ko'ra, mamlakatda ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi yetarli bo'lishi mumkin, ammo ular noto'g'ri boshqarilsa yoki mintaqaviy salohiyat hisobga olinmasa, resurslardan samarali foydalangan bo'linmaydi. U O'zbekistonda hududiy tarmoqlash, klasterlar va davlat-xususiy sheriklik orqali resurslardan samarali foydalanish yo'llarini taklif qiladi.

Uning qarashlarida ishlab chiqarish resurslarining muhim turi sifatida moliyaviy resurslarga urg'u beriladi. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik uchun kreditlar, investitsiyalar va grantlar kabi moliyaviy manbalar oqilona taqsimlanmasa, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi past bo'ladi. Moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish orqali bu muammo hal etilishi mumkin.

Iqtisodchi olimlarning fikrlari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish – bu nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omildir. Tadbirkorlar uchun bu resurslarni boshqarish nafaqat mablag' tejash, balki bozor talabiga moslashish va innovatsion rivojlanishga yo'l ochadi.

Taxlil va natijalar.

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarishda zarur bo'lgan resurslarni topish masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni mavjud resurslardan samarali foydalanishdir. Ishlab chiqarish resurslari — bu mahsulot yoki xizmat yaratishda ishlatiladigan barcha moddiy va nomoddiy vositalardir. Ular quyidagi toifalarga bo'linadi: Tabiiy resurslar – yer, suv, foydali qazilmalar va boshqa xomashyo turlari; Mehnat resurslari – inson salohiyati, malaka, bilim va tajriba; Kapital (moliyaviy va real) – uskunalar, binolar, texnologiyalar, investitsiyalar; Tadbirkorlik qobiliyati – tashabbus, riskni boshqarish, boshqaruv ko'nikmalari; Axborot va texnologiyalar – bilimlar, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar xisoblanmoqda[3].

Shuningdek, barcha sohalarida xam muammolar bo'lgani kabi tadbirkorlik subyektlarida resurslaridan samarali foydalanishga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- ❖ eskirgan uskunalaridan foydalanish;
- ❖ malakali ishchi kuchining yetishmasligi;
- ❖ resurslar hisobini yuritish va nazorat qilishning past darajada tashkil etilishi;
- ❖ energiya va xomashyo isrofgarchiligi;
- ❖ innovatsiyalarning sust joriy etilishi.

Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlari

№	Resurs turi	Samarali foydalanish usullari	Kutilayotgan ijobiy natijalar
1	Tabiiy resurslar	Suvni tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya	Xomashyo tanqisligi kamayadi, ekologik barqarorlik ta'minlanadi
2	Mehnat resurslari	Malaka oshirish kurslari, zamonaviy ish sharoitlari yaratish	Ish unumdorligi va motivatsiya oshadi

3	Moliyaviy resurslar	Xarajatlar tahlili, investitsiyalarni maqsadli yo'naltirish	Rentabellik oshadi, moliyaviy isrof kamayadi
4	Asosiy ishlab chiqarish vositalari	Zamonaviy uskunalar, avtomatlashtirish	Ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, chiqindilar kamayadi
5	Axborot va raqamli texnologiyalar	ERP, CRM, MRP tizimlari, bulutli hisoblash texnologiyalari	Resurslar harakati nazorat ostida bo'ladi, boshqaruv soddalashadi
6	Tadbirkorlik qobiliyati	Raqobat strategiyalari, riskni boshqarish, innovatsiyalar	Bozor talablari tez o'zlashtiriladi, barqarorlik kuchayadi

Manba: Muallif tomonida tayyorlangan.

Yuqoridagi jadvalga asosan biz shunda izoh berish lozimki. Unda xar bir xolatda turlicha fikr muloxaza qilish mumkindir. Ya'ni:

Tabiiy resurslar: Tadbirkorlar yer, suv va energiya kabi resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishi zarur. Masalan, tomchilatib sug'orish texnologiyasi suv sarfini 40-50% gacha kamaytiradi. Qayta tiklanuvchi energiyadan – quyosh panellaridan foydalanish esa uzoq muddatda xarajatlarni kamaytiradi.

Mehnat resurslari: Malakali ishchi kuchi ishlab chiqarish sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Tadbirkorlar doimiy ravishda o'z xodimlarini o'qitib borishi, ularni rag'batlantirishi va mehnat muhiti bilan ta'minlashi lozim.

Moliyaviy resurslar: Kichik biznes subyektlari ko'pincha moliyaviy cheklovlarga duch keladi. Bunda byudjetni rejalashtirish, xarajatlarni tahlil qilish va daromadlarni reinvestitsiya qilish muhim rol o'ynaydi.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari: Texnika va texnologiyalarni yangilash ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish, mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi. Eskirgan uskunalar – resurs isrofiga sabab bo'ladi.

Axborot texnologiyalari: Raqamlashtirish resurslar harakatini real vaqtda kuzatish, tahlil qilish va boshqarishni osonlashtiradi. Masalan, ERP tizimi orqali butun korxona resurslari yagona tizimda muvofiqlashtiriladi.

Tadbirkorlik qobiliyati: Samarali biznesni yuritish uchun faqat resurs emas, balki ularni boshqarish ko'nikmasi ham zarur. Bozorni tahlil qilish, xavflarni oldindan ko'ra bilish va yangiliklarga tez moslashish muvaffaqiyat kalitidir.

Shu bilan birgalikda samarali foydalanishni ta'minlovchi yo'nalishlarini ko'radigan bo'lsak[7].

Unda quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

- ❖ energiya tejamkor uskunalarga o'tish;
- ❖ raqamli avtomatlashtirish va optimallashtirish tizimlari.
- ❖ xodimlar malakasini oshirish;
- ❖ ishchilarning motivatsiya tizimini rivojlantirish.
- ❖ resurslar aylanishini tahlil qilish va rejalashtirish;

- ❖ logistika va zaxira boshqaruvini samarali tashkil qilish.
- ❖ erp, crm, mrp kabi tizimlar orqali resurslarni boshqarish;
- ❖ onlayn monitoring va analitik platformalardan foydalanish.
- ❖ qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish;
- ❖ atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish choralari.

Bizga ma'lumki tadbirkorlikda doimo ishlab chiqarish jarayonida resurslaridan unumli foydalanish korxonaning rivojidir.

Xulosa va takliflar.

Tadbirkorlikda resurslaridan foydalanish barqarorligi va iqtisodiy rentabelligini belgilovchi muhim omildir. Tabiiy, mehnat, moliyaviy va texnologik resurslarning oqilona taqsimlanishi orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va foyda hajmini ko'paytirish mumkin. Bugungi kunda tadbirkorlar resurslardan foydalanishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, raqamlashtirish, energiya tejovchi usullarni joriy etish va inson kapitaliga sarmoya kiritishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotining mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda resurslardan foydalanishni optimallashtirish, eskirgan ishlab chiqarish vositalarini yangilash va resurslar ustidan nazoratni kuchaytirish orqali mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish mumkin.

Bunga quyidagi takliflarni berishimiz mumkin.

– tadbirkorlik subyektlarida erp, crm, mrp kabi tizimlar orqali ishlab chiqarish resurslarining harakatini avtomatik nazorat qilish va optimallashtirish lozim.

– suv, elektr, gaz va xomashyo sarfini nazorat qilishga qaratilgan resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish.

– mehnat resurslaridan maksimal darajada foydalanish uchun kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va ishlab chiqarish o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish.

– kichik va o'rta biznes subyektlariga kreditlar, subsidiyalar va grantlar ajratishda resurslar samaradorligiga asoslangan baholash mezonlarini joriy qilish.

– texnik va texnologik yangilanishlarni rag'batlantirish maqsadida amortizatsiya siyosatini qayta ko'rib chiqish.

– har bir viloyat yoki tuman darajasida mavjud resurslarni hisobga olgan holda hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.

Bu orqali nafaqat resurslardan foydalanish samaradorligi, balki atrof-muhitga ta'sir darajasi ham kamayadi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. T.: "O'zbekiston", 2022 y.
2. Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti. 2024 yil 21-avgust
3. "O'zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik Kodeksi" 2024 yil 15-avgust
4. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2014-yil 19-sentyabr № 191, 22-noyabr №

5. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conference Zone. – 2022. – С. 129-133.
6. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss.avtoref. – T.: 2005-39 b.
7. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to'plam. Toshkent, 2020 y.190b.
8. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
9. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.
10. <https://daryo.uz/category/iqtisodiyot>